

2022 й « 13 » январьдаги Қорақалпоғистон Республикаси Сув ҳўжалиги вазирлиги ва
 Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги қошидаги Юристлар малакасини ошириш маркази ўртасида 415
 800 сўм умумий суммага тузилган № 006315 -сонли шартномага

ТўЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб 170
 Шахсий газна ҳисобварақ 100021860354017042402170003

(сўмда)

2022 йил ойлар номи.	Харажатлар тури (бюджет таснифининг тегишли коди)			Жами
	7042402 42 91 000	...*	...*	
Январь	415 800,00			415 800,00
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Жами йил бўйича	415 800,00			415 800,00

Жами 415 800,00 сўм (Тўрт юз ун беш минг саккиз юз сўм 00 тиийин)
 сўмма сўз билан

Юкорида кўрсатилган суммадан 124 740 сўм ёки шартноманинг умумий суммасидан 30%*** 2022 йил январь ойида
 тўланиши лозим.

(*)-Бюджет ташкилоти, бюджет маблағ олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан газначилик бўлимига икки нусхада тақдим этилади;

(**)-Бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилган;

(***)- Юкорида кўрсатилган суммадан ойнага _____% жорий ойнинг _____ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет
 ташкилоти, бюджет маблағ олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва конун
 хўжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб шартномалари бўйича тўловни амалга ошириш
 холларида тўдирилади).

Бюртмачи раҳбар _____

(имзо)

Ш.Примов

М.У.

Бюртмачи бош булгалтери _____

(имзо)

Б.Примбетов

Газначилик бўлимига
 ходими қабул қилди _____

(имзо)

Бюртмачи ходими
 ходими қабул қилди _____

(имзо)

20 ____ й. « ____ »

20 ____ й. « ____ »

QISQA MUDDATLI MALAKA OSHIRISH TЎҒРИСИДА ШАРТНОМА № 006315-сон

Тошкент ш.

2022 йил 13 январь

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyundagi 531-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi nomidan direktor o‘rinbosari K.Islamov (bundan buyon matnda “Markaz” deb ataladi) bir tomondan va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi nomidan Усман асосида фаолият юритувчи ташкилот раҳбари Primov Shavkat Alimbaevich (bundan buyon matnda “Buyurtmachi” deb ataladi) ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Шартнома предмети

1.1. Markaz O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” 2021-yil 20-apreldagi

O‘RQ-682-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil 8-avgustdagi PF-5505-son farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri birinchi o‘rinbosarining 2021-yil 27-dekabrda 12/1-2611-son topshiriq xatiga asosan vazirlik va idoralarning norma ijodkorligi faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlari va mutaxassislarning malakasini oshirishi hamda Vazirlar Mahkamasining “Yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning zamonaviy tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 8-sentyabrdagi 544-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazida qayta tayyorlash va malaka oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga, shuningdek shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda malaka oshirish kurslarini sifatli tashkil etishni, Buyurtmachi esa malaka oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lashni o‘z zimmasiga oladi.

1.2. Norma ijodkorligi faoliyati bo‘yicha mutaxassislarning malakasini oshirish qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘quv mashg‘ulotlari O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan 22 akademik soat (uch kun)dan iborat o‘quv dasturi (auditoriya mashg‘ulotlari: ma‘ruza-10 soat, seminar – trening - 4 soat, amaliy mashg‘ulotlar - 6 soat (shundan yakuniy sinov uchun 2 soat)) asosida ishdan ajralgan yoki ajralmagan holda amalga oshiriladi.

1.3. Markaz tomonidan malaka oshirish kursi bitiruvchilariga elektron sertifikatlar noyob identifikatsiya raqami va QR-kod hamda himoya elementlarini nazarda tutuvchi “Elektron sertifikatlar repozitoriysi” tizimi orqali taqdim etiladi.

2. Малака ошириш учун белгиланган тўлов ва ҳисоб-китоб тартиби

2.1. Tasdiqlangan o‘quv dasturi bo‘yicha malaka oshirish uchun belgilangan to‘lov bir kishi uchun qo‘shimcha qiymat solig‘isiz 415800 so‘mni tashkil etadi.

2.2. Buyurtmachi oldindan shartnoma qiymatining 30 foiz to‘lovini shartnoma imzolanganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligidan ro‘yxatdan o‘tganidan keyin o‘n bank ish

kuni mobaynida Markazning hisob-raqamiga o'tkazib beradi.

Buyurtmachi shartnoma qiymatining qolgan 70 foiz to'lovini Markaz tomonidan taqdim etilgan hisob fakturaga asosan, besh bank ish kuni davomida amalga oshiradi.

2.3. Buyurtmachi shartnoma imzolanganidan so'ng shartnomani 5 bank ish kuni mobaynida g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazish majburiyatini oladi va shartnomaning ikkinchi nusxasini malaka oshirish kursi boshlangan vaqtda Markazga taqdim etilishini ta'minlaydi.

3. Марказнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари

3.1. Markaz quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

o'quv kursining umumiy hajmidan kelib chiqqan holda malaka oshirish jarayonini sifatli tashkil qilishni ta'minlash;

mashg'ulotlarni soha bo'yicha yuqori malakaga ega bo'lgan professor-o'qituvchi va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan o'tkazilishini ta'minlash;

tinglovchilarni o'quv materiallari, texnik vositalar, kompyuter texnikalari va kutubxonadan foydalanishini ta'minlash;

malaka oshirish kurslari yakuni bo'yicha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilarga belgilangan namunadagi sertifikat berish.

4. Буюртмачининг мажбурияти

4.1. Buyurtmachi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

malaka oshirish uchun belgilangan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirish;

malaka oshirish kurslari bevosita Markazda tashkil etilgan hollarda tinglovchilarni belgilangan muddatda Markazga yetib kelishi va mashg'ulotlarda to'liq qatnashishlarini ta'minlash (qatnashish);

malaka oshirish kurslari onlayn shaklda tashkil etilganda tinglovchilarni onlayn o'quv mashg'ulotlarida bevosita ishtirok etishini ta'minlash (bevosita ishtirok etish);

buyurtmachi belgilangan muddatlarda tinglovchilarni malaka oshirishga yubormagan hollarda, tinglovchilar joriy o'quv yilining keyingi oyida o'qitiladi.

5. Томонларнинг жавобгарлиги

5.1. Ushbu shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki lozim bo'lgan darajada bajarmaslik tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikni yuzaga keltiradi.

5.2. Shartnoma yuzasidan vujudga keladigan har qanday nizoli masalalar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Kelishuvga erishilmagan hollarda nizo sud tartibida hal etiladi.

5.3. Ushbu shartnomani bajarishda tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladilar.

6. Шартномага қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тартиби ҳамда бекор қилиш

6.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish yoki qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikki tomon imzolagandan so'ng, Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

6.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarda va tartibda amalga oshiriladi.

6.3. Shartnoma quyidagi hollarda Markaz tomonidan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin:

tinglovchi Markaz Ustaviga hamda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazida qayta tayyorlash va malaka oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq tinglovchilar safidan chiqarilganda;

malaka oshirish uchun belgilangan to'lov to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilmaganda;

6.4. Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan taraf boshqa tarafga bu haqda yozma xabarnoma yuboradi.

7. Форс мажор ҳолатлари

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar bo'lmaydi. Vakolatli organ tomonidan berilgan maxsus hujjat yengib bo'lmas kuch mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.2. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim. Agar yengib bo'lmas kuch uzluksiz amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

8. Бошқа шартлар

8.1. Buyurtmachi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va malaka oshirish kurslariga mutaxassislarni jalb qilish yuzasidan Markazga takliflar kiritishi mumkin.

8.2. Tinglovchi uzrsiz sabablarga ko'ra (mehnat shartnomasi bekor qilingan, boshqa ishga o'tgan) Markazda an'anaviy va masofaviy onlayn shaklda tashkil etilgan mashg'ulotlarda qatnashmagan yoki belgilangan malaka oshirish kursi davomida o'quv kursini (ma'ruza, videoma'ruza, taqdimot slaydlari, glossariy) o'zlashtirmagan yoxud yakunlamagan, shuningdek belgilangan tartibda Markaz tinglovchilari safidan chiqarilgan hollarda, Markaz hisob raqamiga o'tkazilgan to'lov summasi Buyurtmachiga qaytarilmaydi.

8.3. Tinglovchi yakuniy sinov imtihonidan (suhat) o'ta olmagan taqdirda Markaz hisob raqamiga o'tkazilgan to'lov summasi Buyurtmachi tashkilotga qaytarilmaydi. Bunday holda tegishli Buyurtmachi tashkilot qaytadan Markaz bilan elektron dastur orqali shartnoma rasmiylashtirishi lozim. Shartnoma bo'yicha to'lov summasi belgilangan tartibda amalga oshirilgandan so'ng tinglovchi o'qish shaklini kelishib, navbatdagi guruh bilan birgalikda malaka oshirish kursida o'qiydi.

8.4. Uzrli sabab bilan malaka oshirish kursini yakuniga yetkaza olmagan tinglovchi tomonlar kelishuviga binoan navbatdagi guruh bilan birgalikda malaka oshirish kursini yakunlashi mumkin.

8.5. Yakuniy sinov imtihonida uzrli sabablarga ko'ra qatnasha olmagan tinglovchi navbatdagi guruh tinglovchilari bilan birgalikda malaka oshirish kursini yakunlashi mumkin.

8.6. Malaka oshirish kurslarida o'quv jarayoni, qoidaga ko'ra, 25 nafardan ortiq bo'lmagan tinglovchilardan iborat akademik guruhlarda tashkil qilinadi.

8.7. Tegishli axborot-metodik va tashkiliy-texnik baza mavjud bo'lgan taqdirda malaka oshirish o'quv kurslari masofadan o'qitish usullari qo'llanilgan holda onlayn yoki offlayn shaklida tashkil etiladi.

8.8. Markaz tinglovchilarni turar-joy bilan ta'minlash majburiyatini olmaydi.

8.9. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan barcha shartlar amaldagi qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi.

9. Алоҳида шартлар

9.1. Tomonlarning har biri mazkur shartnoma shartnoma bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini olib borishni tan oladilar va tasdiqlaydilar. Barcha korrupsiyaviy hatti-harakatlarda qatnashmaslik, jumladan pul mablag'lari yoki boshqa ko'rinishda pora taklif qilmaslik, va'da bermaslik, shuningdek o'z vakolatlarini suiiste'mol qilmaslik kabi talablarga amala qilishlari shart.

9.2. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagan kundan kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabr qadar amal qiladi.

9.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan va bir xil yuridik kuchga ega.

ТОМОНЛАРНИНГ РЕКВИЗИТЛАРИ:

Ўзбекистон Республикаси Алия
Вазирлиги қошидаги Юристар

малакасини ошириш маркази
Молия вазирлиги Ғазначилиги

х/р 23402000300100001010

ХККМ МБ ББ Тошкент ш.

МФО 00014

ИНН-201122919

п/с. 400110860262697096200009001

ИНН 201991922 ОКЭД-85590

100052, Тошкент шаҳри, Катта-Дархон

кўчаси, б/й

Тел. (71) 234-53-46

Марказ директори Уринбосари

К. Исломов

Юристоконсулт

Ж. Жўраев

Буюртмачи

Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi
vazirligi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri

T. Qayipbergenov ko'chasi 25-uy

МБББХККМ Тошкент ш

23402000300100001010

100021860354017042402170003

00014

204674094

201122919

Primov Shavkat Alimbaevich

Юрист

Минваз хов РК

М. Ерисматов



Faint, illegible text centered on the page, possibly bleed-through from the reverse side.